



**Si Szinpin ma`muriyati davrida Xitoyning iqtisodiy va ijtimoiy ahvoli.
(2013-2020)**

Abduraimov Doston Sodiq o'g'li

SamDU tarix fakulteti magistratura bitiruvchisi

Annatatsiya: Shiddat bilan rivojlanayotgan zamonaviy dunyoda rivojlangan davlatlar tarixini o'rghanish va amaliy hayotga tadbiq etish, bugungi kunda nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Aynan mazkur maqolada Xitoy hukumatini 2013-2020 yillarda boshqargan Si Szinpin faoliyati va uning davlatni rivojlantirish yo'lida amalgalashirgan ishlari tarixiylik nuqtai-nazirdan ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Si Szinpin, Singhau universiteti, general Geng Biao, Evropa Ittifoqi, 2013 yil, Xitoy Respublikasi, yalpi ichki mahsulot.

Экономическое и социальное положение Китая во время правления Си Цзиньпина. (2013-2020)

Аннотация: В стремительно развивающемся современном мире изучение истории развитых стран и применение ее в практической жизни сегодня чрезвычайно актуально. В данной статье с исторической точки зрения будет раскрыта деятельность Си Цзиньпина, возглавлявшего китайское правительство в 2013-2020 годах, и его работа по развитию страны.

Ключевые слова: Си Цзиньпин, Университет Цинхуа, генерал Гэн Бяо, Европейский Союз, 2013 г., Китайская Республика, ВВП.

China's economic and social situation during Xi Jinping's administration. (2013-2020)

Annotation: In the rapidly developing modern world, studying the history of developed countries and applying it to practical life is extremely relevant today. In this article, the activities of Xi Jinping, who led the Chinese government in 2013-2020, and



his work on the development of the country will be revealed from a historical point of view.

Key words: Xi Jinping, Tsinghua University, General Geng Biao, European Union, 2013, Republic of China, GDP.

XXI asr boshlarida Xitoy siyosiy hayotida bir qancha o'zgarishlar amalga osha boshladi. 2013-yil 14-mar sanasida Si Szin Pin Xitoy Respublikasining raisi lavozimiga saylandi. Si Szin Pin ham o'zidan oldingi rahbarlar amlaga oshira boshlagan islohotlarni davom ettirdi.

Shu o'rinda Si Szin Pin hayot yo'llariga e'tiborimizni qaratib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Szin Pin 1953-yilda Pekin shahrida tug'ilgan. Uning otasi Si Tszuxun ham uzoq yillar siyosiy faoliyat bilan shu'gullangan. U XX asrning 30-yillaridan boshlab Mao Szedun bilan yaqin aloqada bo'lgan. Xitoy Xalq Respublikasi tashkil etilgandan so'ng Bosh vazir orin bosari lavozimigacha ko'tarilgan. Si Tszuxunning bunday mansablarda ishlashi yosh Szin Pin uchun yaxshi sharoit yaratilishini taminlagan. [1]

1965-yilda Si Szin Pinning otasi dastlab Pekindan chiqarib yuborilgan, keyinchalik esa qamoqqa olingan. Yosh Szin Pin esa 7 yil davomida Shensi viloyatida yashahga majbur bo'lgan. Lekin XX asr 70-yillarida Szin Pin Pekinga qaytib kelgan. 1974-yilda dastlab Xitoy komunistik partiyasi a'zoligiga qabul qilingan bo'lsa, 1975-yilda esa Singhau universitetining kimyo va tehnalogiyalar fakultetiga o'qishga kirdi.

1982-yilda Szin Pin general Geng Biaoning kotibi bo'lib ishlagan bo'lsa, 1985-yilda uni Fujianga hokim qilib yuborgan. Uning 2002-yilgacha bo'lgan siyosiy faoliyati bevosita Fujian bilan bog'liq bo'lgan. Bu yillar davomida Szin Pin bir qancha mansablarda faoliyat yuritgan.

2002-yilning noyabr oyida XKP ning 16-qurultoyida Xu Szin Tao Markaziy qo'mitaning yangi bosh kotibi e'tib saylangan. Xuddi shu vaqtida Szin Pin ham Markaziy qo'mita a'zoligiga qabul qilingan. 2002-2003-yillarda Szin Pin Chjetsiyan



viloyati gubernatori lavozimini bajargan bo'lsa, 2003-2007-yillarda esa viloyat Xalq kongressi doimiy komissiyasini boshqargan. 2007-yilning mart-oktyabr oylarida hanxay shahar qo'mitasini boshqargan. [2]

2010-yil oktyabrdagi Markaziy Qo'mitaning beshinchi yalpi majlisida Si Szin Pin Markaziy harbiy kengash raisining o'rinnbosari etib tayinlangan. 2011-yilda vitse-prezident bo'lган bo'lsa, 2012-yil oktyabrida amalda XKP ning lideriga aylangan.[1]

Szin Pin vitse-prezident bo'lган davrdan boshlab Xitoyning iqtisodiy va ijtimoiy holatiga oid bir qancha fikrlarni bildira boshlagan. Bu holat ayniqsa uning amalda XRP ning rahbariga aylanishi bilan yanada kuchaygan. Xususan, Szin Pin 2012-yilda davlatda amnalga oshirilayotgan islohotlarga to'xtalib o'tib, Den Syopin haqida iliq fikrlarni bildirib o'tgan. Szin Pinning fikriga ko'ra Den Syopin bo'limganda Xitoy bugungi kuch-qudratiga erisha olmagan bo'lar edi. U Den Syopin qilgan ishlarini yuqori baholab, bugungi kunda ham uning g'oyalaridan foydalanish lozimligini takidlab o'tgan. [3]

Szin Pin hokimiyatga kelgach mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada kuchaytirish choralarini ko'ra boshladi. Uning fikricha Xitoydagagi iqtisodiy islohotlar sotsializmni inkor qilmagan holatda olib borilishi lozimligi belgilangan. Uning so'zlariga ko'ra, amalga oshirilayotgan islohotlar Xitoyning rivojlantirish uhun bo'lган talabni qondirish kerak edi. Szin Pinning Poyafzalning mos keladimi yoki yo'qmi, faqat egasi biladi degan iborasi tezda mashhur bo'lib keldi. Uning fikricha Xitoyda amalga oshirilayotgan islohotlar davlatning barcha jahbalarini qamrab olishi lozim edi. Szin Pin tamonida amalga oshirila boshlagan ishlarni ko'plab mutaxassislar beshinchi modernizatsiya davri deya ta'riflamoqda.

Szin Pin tamonidan amalga oshirila boshlagan islohotlar to'g'risida bir qancha olimlar ijobjiy fikrlarini bildirmoqda. Xususan, Singapur Milliy universiteti qoshidagi Sharqiy Osiyo tadqiqot instituti deriktori Chjen Yunianning takidlashicha, Szin Pin amalga oshirilayotgan islohotlar o'zidan oldingi davrilarda amalga oshirilgan islohotlarning yig'indisidir. Uning bunday deyishiga Szin Pin oldingi yillarda amlga



oshirilgan islohotlarni yaxshi o'rganganligi va bu islohotlarni yanda kuchaytirish lozimligini bot-bot takidlagani sabab bo'lgan.

2013-yilning noyabr oyida Si Szin Pin dunyodagi eng katta islohotlar rejasini e'lon qildi. Uning fikricha bu islohotlarni amalga oshirish uchun yeti yil vaqt kerak bo'lar edi. Bu islohotlarning e'lon qilinishi butun dunyo siyosatchilari e'tiborini o'ziga tortgan. U Markaziy Komitetining 3-yalpi majlisida islohotlarni qanday tartibda olib borishi belgilab olindi.

Si Szipin hukumatga kelgandan keyingi Xitoyda boshlangan islohotlar butun dunyo mutaxassislarini diqqatini o'ziga qaratdi. Bir qator ommaviy vositalar Si Szinpinni Xitoy islohotini ilhomlashtiruvchishi deya bong uara boshladi. Uchunchi yapli majlisda Si Szinpinning yangi davrni xitoylik xususiyatlariga ega bo'lган sotsializimi g'oyasi e'lon qilindi. Uchunchi yalpi yig'ilishdan keyin Islohotlarni boshqardigan bir qancha guruhlar tashkil qildi. Bu guruhlarning Markaziy kengashiga Si Sinpinning o'zi raislik qilishi belgilandi.

Si Siznpin hokimiyatga kelgan yildan ya'ni, 2013-yildan 2017-yil oxirigacha bo'lgan vaqt oralig'ida davlat tashkilotlari faoliyatini 50 marta tekshiruvini amalga oshirdi. Bundan ko'zlangan maqsad davlat amaldorlarini faoliyatini tekshirish, ularni oz mansablarini suiste'mol qilganlarni qattiy jazolagan.

Si Szipin davrida xalqning yashash sharoitlari anchagin ayaxshilana bordi. Uning hokimiyatga kelgandan keyingi 6 yil ichida shahr va qishloq aholisining o'rtacha yilliki o'sish su'rati 7,4 % ni tashkil qildi. Aholining o'rtacha ish haqi 5000 yaun, 725 AQSH dollarni tashkil qilgan. Olti yil ichida Xitoyning 70 mlnga yaqin qishloq aholisi qashshoqlikdan qutildi.

Szinpin davrida Xitoyning ijtimoiy taminoti kengaydi. Asosiy tibbiy sug'urta 1,3 mlrd kishi, 900 mln dan ortiq kishi keksalik ijtimoiy sug'urtasiga ega bo'lgan.

Si Szipin davrida yangi Xitoy iqtisodiy rivojlanish modelining yana bir tarkibiy elementi iqtisodiy o'sishning sifat ko'rsatkichlariga (innovatsiyalar, hayot sifati, atrof-muhit muhofazasi) erishish hisoblanadi.



Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning XII besh yillik rejası (2011-2015) iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga jiddiy o'zgartirishlar bo'ldi. Xitoy yalpi ichki mahsulotning umumiy miqdoriy ko'rsatkichlari bo'yicha jahonda AQSHdan keyingi ikkinchi iqtisodiyotga aylandi. Ammo miqdoriy o'sish resurslar yetishmasligi, ekologiyaning yomonlashuvi va qator ijtimoiy muammolarni keltirib chiqardi. Xitoyda oxirgi sakkiz yilda ilmiy-texnologik salohiyatni modernizatsiyalash jarayonlarining sekinlashuvi iqtisodiy o'sishning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash imkonini bermadi. Bu sohada Xitoy AQSH, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreyadan ortda qolmoqda. O'z navbatida hozirgi iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazish Xitoy iqtisodiyotining rivojlanmagan qoloq segmentlarining innovatsion rivojlanishga tayyor emasligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, harbiy sohani modernizatsiyalash jarayonlarining jadallahuvi iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xitoy hukumati iqtisodiy islohotlar yillarda erishilgan muavafaqiyatlarga qaramasdan iqtisodiy rivojlanishning yangi strategiyasini ishlab chiqishga kirishdi. Hozirda Xitoyda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini 8% darajasida saqlab qolish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Ushbu vazifani hal etishda Xitoyning yangi iqtisodiy strategiyasi muhim ahamiyat kasb etadi va u quyidagi tarkibiy yo'naliшlarga ega: [4; 57-65]

- yuqori o'sish sur'atlarini saqlab turish strategiyasidan voz kechish;
- iqtisodiy o'sish sifatiga urg'u berish;
- innovatsion rivojlanish strategiyasi;
- yashil iqtisodiyot asosida o'sish strategiyasi.

Qayd etib o'tilganidek, Xitoyda ichki iste'mol talabi va innovatsiyalarga ustuvorlik berilgan yangi iqtisodiy rivojlanish modelining shakllanish jarayoni boshlandi. Yangi hukumat iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarini saqlab qolish, inflyatsiya va ishsizlik o'rtaсиda strategik balansni o'rnatishga harakat qilmoqda. Asosiy e'tibor iqtisodiy nomutanosibliklarni bartaraf etishga va istiqbolda barqaror



iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun liberal islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishga qaratiladi. Quyidagilar ushbu iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan:

- iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish (samarasiz davlat korxonalarini xususiy lashtirish, kredit bozorida arzon va yuqori likvidli kreditlarni - cheklash, urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish va kichik biznesni qodlab-quvvatlash uchun investitsiyalar sarflash);
- iqtisodiyotni boshqarishda byurokratiyani kamaytirish (xitoy tovarlarining tannarxini pasaytirish va korrupsiya darajasini kamaytirishga yo'naltirilgan ruxsat beruvchi choralarni soddalashtirish yoki to'liq bekor qilish);
- ichki talabni kengaytirish (aholi daromadlarini oshirish).

Xitoy iqtisodi 2013 yilning birinchi yarmida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12,7%ga o'sdi. Xarajatlarning ortishi asosan sifatli oziq-ovqat, avtomobillar, uy-ro'zg'or buyumlari, dam olish va kiyim-kechak sotib olish hisobiga yuz bergen. Masalan, ushbu davrda avtomobillar sotish hajmi 17%ga o'sgan. Xitoyda 2013 yilning birinchi choragida 320 tonna oltin sotilgan va uning 95%i taqinchoqlar, quymalar va tangalar hissasiga to'g'ri kelgan. Quymalar va tangalar sotish hajmi 2012 yilning birinchi choragiga nisbatan 137%ga o'sgan. Umumjahon turizm tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra 2012 yilda Xitoylik turistlar xalqaro turizm uchun 102 mlrd dollar sarflashgan va ushbu ko'rsatkich 2011 yilga nisbatan 40%ga oshgan.[5]

Xitoyning iqtisodiyoti XXI asr ikkinchi o'n yilligida o'zining tarqqiy qilishi bo'yicha oldingi o'n yillikdan ancha ajralib turdi. Xitoyning iqtisodi 2017 yilda 23,12 trillion dollar ishlab chiqarildi. Bu dunyodagi eng katta iqtisodiy ko'rsatkich bo'lган. Bu ko'rsatkich Evropa Ittifoqida 19,9 trillion dollarni tashkil qilgan. Qo'shma Shtatlar 19,3 trillion dollar ishlab chiqaruvchi uchinchi o'rinni egallagan.

Xitoy 2017-yilda ishlab chiqarilgan 2,2 trillion dollarlik mahsulotni eksport qilganda dunyoning eng yirik eksportchisi sifatida o'z o'rnini topdi. Bu ko'rsatkich Yevropa



Ittifoqi va AQSH ko'rsatkichidan yuqori bo'lган.

Quyida keltirlган ма'lumotlardan ko'rinish turibdiki, Xitoy XX asr ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida iqtisodiy jihatdan shiddat bilan rivojlanib ko'plab davlatlarni orqada qoldirdi va rivojlangan davlatlar qatiriga chiqoaldi. Shu o'rinda hukumat rahbari bo'lган Si Szin Pin juda katta ishlarni amalga oshirdi.

Iqtiboslar / Ссылка / Reference

1. Си Цзиньпин - Свободная Пресса - Си Цзиньпин: семья, карьера, биография. Китай Си Цзиньпин. КНР Си Цзиньпин. - Свободная Пресса (svpressa.ru)
2. Си Цзиньпин — председатель КНР (mychinaexpert.ru)
3. Си Цзиньпин — председатель КНР (mychinaexpert.ru)
4. Михеев В. Дальше - без заветов-2 (Китай: смена модели модернизации) //Мировая экономика и международные отношения, №6, 2013.
5. Концепция Си Цзиньпина (globalaffairs.ru)